



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 234 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saïda</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	



Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Желбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	

MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA INDUKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING XORIJIY TAJIRIBASI

Mirazimova Muxabbat Normatovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi, kompetentlikka yo'naltirilgan tizim, xorijiy amaliyotda keng qo'llanilayotgan inquiry-based learning, ya'ni izlanishga asoslangan ta'lim, discovery learning, ya'ni kashfiyotga asoslangan ta'lim, problem-based learning, ya'ni muammoli ta'lim, induktiv fikrlash mexanizmlari, tajriba va o'yin orqali bilish ham xorijiy maktabgacha ta'lim tizimlarining asosiy metodologik tamoyillaridan biri ekanligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: induktiv metodlardan foydalanish, xorijiy tajribalar, izlanishga asoslangan ta'lim, kashfiyotga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, induktiv fikrlash mexanizmlari, maktabgacha ta'lim tizimi.

Abstract: The article examines the foreign experience of using inductive methods in the process of preschool education, the competency-based system, inquiry-based learning, discovery learning, problem-based learning, inductive thinking mechanisms, and learning through experience and play, which are widely used in foreign practice.

Key words: use of inductive methods, foreign experiences, inquiry-based education, discovery-based education, problem-based learning, inductive thinking mechanisms, preschool education system.

Аннотация: В статье рассматривается зарубежный опыт использования индуктивных методов в процессе дошкольного образования, компетентностно-ориентированной системы, обучения на основе исследований, обучения через открытие, проблемно-ориентированного обучения, механизмов индуктивного мышления, а также обучения через опыт и игру, которые широко применяются за рубежом.

Ключевые слова: использование индуктивных методов, зарубежный опыт, образование на основе исследования, образование на основе открытия, проблемно-ориентированное обучение, механизмы индуктивного мышления, система дошкольного образования.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning mustaqil fikrlashi, kuzatuvchanligi va bilish faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday metodlardan biri induktiv metod bo'lib, u bolalarning kuzatish, tajriba va amaliy faoliyat asosida umumiy xulosalarga kelishini ta'minlaydi. Xorijiy mamlakatlar tajribasida mazkur metoddan foydalanish bolalarning qiziqishi, ijodiy fikrlashi va mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Shu sababli maktabgacha ta'limda induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasini o'rganish va ilg'or jihatlarini milliy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'lim sohasini modernizatsiya qilish masalasiga to'xtalar ekan, "Biz ta'lim tizimini jahonning ilg'or tajribalari asosida tubdan yangilashimiz zarur. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh avlodni tarbiyalash bugungi kunning eng ustuvor vazifasidir", deya ta'kidlagan edi. Ushbu fikr maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish zaruratini ko'rsatadi. Ayniqsa, induktiv metodlarning xalqaro miqyosda qo'llanish tajribasi maktabgacha yoshdagi bolalarda tizimli bilish kompetentligini shakllantirish nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro ta'lim standartlari so'nggi o'n yilliklarda kompetentlikka asoslangan paradigmaga o'tdi. Kompetentlikka yo'naltirilgan tizimlarda bilimni tayyor shaklda berishdan ko'ra, uni faol jarayonda shakllantirishga urg'u beriladi. OECD, UNESCO hamda Yevropa Ittifoqining erta bolalik ta'limi bo'yicha hujjatlarida bolalarning mustaqil fikrlashi, muammoni hal etish ko'nikmasi va kognitiv moslashuvchanligi asosiy natija sifatida belgilanadi. Bu esa bevosita induktiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini kuchaytiradi. Induktiv metod faktlardan umumlashtirishga olib boradigan jarayon bo'lgani sababli, u kompetentlikka asoslangan ta'limda kognitiv faoliyatni tashkil etuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Induktiv ta'lim g'oyalari klassik pedagogika tarixida ham muhim o'rin egallagan. J. A. Komenskiy ta'limda bolaning bevosita kuzatishi, narsa va hodisalarni amaliy faoliyat orqali anglashiga katta ahamiyat bergan. Uning qarashlarida ta'limni oddiydan murakkabga, konkretan abstraktga qarab tashkil etish tamoyillari induktiv yondashuvning pedagogik asoslarini shakllantirgan.¹

J. Dyui ta'lim jarayonida bolaning tajribasi va faol ishtirokini ustuvor deb hisoblagan. Uning "tajriba orqali o'rganish" konsepsiyasi maktabgacha ta'limda induktiv metodlardan foydalanish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Dyui qarashlariga ko'ra, bola tayyor bilimni shunchaki qabul qiluvchi emas, balki faol izlanish, kuzatish va amaliy faoliyat orqali bilimni shakllantiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.²

J. Piagetning bolalarning kognitiv rivojlanishiga oid tadqiqotlari ham mazkur mavzu uchun muhim ahamiyatga ega. Olim bolaning tafakkuri yoshga xos ravishda bosqichma-bosqich rivojlanishini va bilimning faol faoliyat jarayonida shakllanishini asoslab bergan. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda predmetlarni taqqoslash, guruhlash, saralash, ketma-ketlikni aniqlash va kuzatish kabi faoliyatlar induktiv fikrlashning rivojlanishiga yordam beradi.³

L. S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida esa bolaning bilim va ko'nikmalarni kattalar hamda tengdoshlari bilan hamkorlikdagi faoliyati orqali egallashi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuv induktiv metodlarni qo'llashda pedagogning yo'naltiruvchi savollar berishi, muammoli vaziyat yaratishi va bolaning mustaqil xulosa chiqarishiga sharoit yaratishini nazarda tutadi.⁴

Xorijiy maktabgacha ta'lim tajribasida, xususan, Montessori pedagogikasi, Reggio Emilia yondashuvi va HighScope dasturida bolaning faol ishtiroki, mustaqil tanlovi, kuzatish va tajriba orqali o'rganishi muhim o'rin egallaydi.⁵

M. Montessori tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim tizimida bolaga real predmetlar bilan mustaqil ishlash, ularni kuzatish va o'z xatolarini aniqlash imkoniyatini berish orqali bilimni faol o'zlashtirishga e'tibor qaratiladi. Bu jihatlari induktiv ta'lim tamoyillari bilan uyg'unlashadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy amaliyotda keng qo'llanilayotgan inquiry-based learning, ya'ni izlanishga asoslangan ta'lim, induktiv metodning zamonaviy talqinidir. Ushbu yondashuvda bolalar savol qo'yish, kuzatish, tajriba o'tkazish va xulosa chiqarish bosqichlari orqali bilimni egallaydilar. Bu jarayonda pedagog yo'naltiruvchi va tashkil etuvchi rolni bajaradi, biroq tayyor xulosa bermaydi. Inquiry-based learning ayniqsa erta bolalik ta'limida samarali hisoblanadi, chunki bola tabiatan qiziquvchan va atrof-muhitni o'rganishga intiladi. Izlanish jarayonida u sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlaydi va tizimli fikrlash elementlarini shakllantiradi.

Discovery learning, ya'ni kashfiyotga asoslangan ta'lim ham induktiv yondashuvning muhim shakllaridan biridir. Bu metod bolaga aniq tajribalar orqali umumiy qoida yoki tushunchani mustaqil aniqlash imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tizimlarida kashfiyot elementlari o'yin, tajriba va sensor mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Bolaning shaxsiy tajribasi va "kashfiyot effekti" bilimning mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Problem-based learning, ya'ni muammoli ta'lim ham induktiv fikrlash mexanizmlariga tayanadi. Muammoli vaziyat yaratish orqali bolalar mavjud bilimlarini qo'llash, yangi bog'lanishlarni aniqlash va xulosa chiqarishga undaladi. Bu yondashuv real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan bo'lib, tafakkur moslashuvchanligini rivojlantiradi. Maktabgacha yoshda muammoli ta'lim oddiy, aniq vaziyatlar orqali tashkil etilib, bola sababni izlash va natijani tushuntirish jarayonida faol ishtirok etadi. Induktiv metodning erta bolalik ta'limi bilan bog'liqligi, avvalo, sensor-tajriba asosidagi yondashuvlar bilan izohlanadi. Xorijiy maktabgacha ta'lim tizimlarida bolalar ko'rish, eshitish, ushlash va harakat orqali bilishni amalga oshiradilar. Sensor tajriba aniq faktlarni kuzatish va ularni

1 Comenius, J. A. The Great Didactic (Didactica Magna). Translated by M. W. Keatinge. – London: Adam and Charles Black, 1896.

2 Dewey, J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.

3 Piaget, J. The Origins of Intelligence in Children. – New York: International Universities Press, 1952.

4 Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Edited by M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, E. Souberman. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

5 Hohmann, M., Weikart, D. P. Educating Young Children: Active Learning Practices for Preschool and Child Care Programs. – Ypsilanti, MI: High/Scope Press, 1995.

solishtirish imkonini beradi, bu esa induktiv umumashtirish uchun psixologik zamin yaratadi. Tajriba orqali o'rganish bolaning sezgi-idrok jarayonlarini faollashtiradi va bilimni tabiiy ravishda shakllantiradi.

O'yin orqali bilish ham xorijiy maktabgacha ta'lim tizimlarining asosiy metodologik tamoyillaridan biridir. O'yin jarayonida bola rollar orqali sabab-oqibat munosabatlarini modellashtiradi, vaziyatlarni solishtiradi va xulosaga keladi. Induktiv metod aynan o'yin faoliyatida samarali namoyon bo'ladi, chunki u aniq tajriba asosida umumashtirish imkonini beradi. Erta yoshda tafakkur rivoji ko'rgazmali-obrazli xarakterga ega bo'lganligi sababli, induktiv yondashuv psixologik jihatdan mos keladi. Bola abstrakt qoidani emas, balki aniq hodisani tushunadi va undan umumiy ma'no chiqaradi. Shu tariqa, xorijiy maktabgacha ta'lim tizimlarida qo'llanilayotgan metodologik yondashuvlar induktiv metodning zamonaviy talqinini namoyon etadi hamda uning kompetentlikka asoslangan ta'lim bilan uyg'unligini ko'rsatadi. Bu tajribalar induktiv o'rgatish mexanizmlarini yanada chuqurroq tahlil qilish va ularni turli mamlakatlar kesimida qiyosiy o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi, bu esa keyingi bo'limlarda alohida ko'rib chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yevropa davlatlari maktabgacha ta'lim tizimlari erda bolalik davrida mustaqil fikrlashni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishi bilan ajralib turadi. Bu tizimlarda o'qitish jarayoni reproduktiv bilim uzatishdan ko'ra, izlanish va tajribaga asoslangan faol bilishga yo'naltirilgan bo'lib, induktiv metodlar tabiiy ravishda ta'limning ichki mexanizmiga aylangan.

Finlyandiya maktabgacha ta'lim tizimi o'yin va kuzatishga asoslangan o'qitish tamoyiliga tayanadi. Fin pedagogik konsepsiyasida bola erkin faoliyat subyekti sifatida qaraladi va uning tabiiy qiziqishi ta'lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Mashg'ulotlar qat'iy akademik shaklda emas, balki tajriba, o'yin va muhit bilan o'zaro ta'sir asosida tashkil etiladi. Pedagog ko'proq savol orqali yo'naltiruvchi rolni bajaradi; savollar bolaning fikrlash jarayonini chuqurlashtirishga, kuzatilgan hodisalar orasidagi bog'lanishni aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, tabiatni kuzatish jarayonida bolaga tayyor tushuntirish berilmaydi, balki "Nima uchun barglar rangini o'zgartirdi?", "Agar suv muzlasa, nima bo'ladi?" kabi savollar orqali umumashtirishga olib boriladi. Bunday yondashuv mustaqil xulosa chiqarishga rag'bat beradi va aniq faktlardan umumiy qonuniyatni aniqlash mexanizmini shakllantiradi. Induktiv jarayon bu yerda strukturaviy tarzda boshqarilmasa-da, tabiiy ravishda o'yin va kuzatish jarayoniga singdirilgan bo'ladi.

Germaniya maktabgacha ta'lim amaliyotida, ayniqsa, Reggio Emilia pedagogik yondashuvi ta'sirida bola tadqiqotchi sifatida qaraladi. Bu yondashuvda ta'lim jarayoni bolalarning qiziqishidan kelib chiqib, loyihalar asosida tashkil etiladi. Kichik loyihalar davomida bolalar muayyan mavzuni o'rganish jarayonida kuzatadilar, savol qo'yadilar, rasm chizadilar, maketlar yaratadilar va umumiy xulosaga keladilar. Jarayon davomida vizual modellashtirish muhim o'rin tutadi: bola o'z tasavvurlarini rasm, sxema yoki konstruktsiya orqali ifodalaydi. Vizual ifoda umumashtirish jarayonini aniqlashtiradi va tizimli fikrlashni mustahkamlaydi. Reggio Emilia yondashuvida induktiv metodning o'ziga xos jihati shundaki, umumashtirish pedagog tomonidan oldindan belgilab qo'yilmaydi; u bolalarning izlanish jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu esa bilish jarayonini ijtimoiy muloqot va hamkorlik bilan boyitadi.

Buyuk Britaniyada amal qilinadigan EYFS (Early Years Foundation Stage)⁶ standarti ham erda bolalik ta'limida tajriba va kuzatishga asoslangan baholash tizimini joriy etgan. Bu tizimda bolaning rivojlanishi faqat yakuniy natija orqali emas, balki kuzatuvlar, faoliyat jarayonidagi harakatlari va refleksiv munosabati orqali baholanadi. Induktiv savol tizimi pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi; o'qituvchi ochiq savollar orqali bolaning fikrlashini chuqurlashtiradi va uni sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga undaydi. Masalan, "Nima uchun shunday bo'ldi?", "Agar boshqacha qilsak, nima bo'ladi?" kabi savollar refleksiv faoliyatni faollashtiradi. EYFS yondashuvida refleksiya muhim o'rin tutadi, chunki bola o'z tajribasi haqida fikr yuritadi, qanday xulosaga kelganini tushuntiradi va shu orqali tafakkur jarayonini ongli ravishda anglay boshlaydi. Bu esa induktiv fikrlashning metakognitiv darajasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yevropa davlatlari tajribasining tahlili shuni ko'rsatadiki, Finlyandiya, Germaniya va Buyuk Britaniya maktabgacha ta'lim tizimlarida induktiv metodlar o'yin, kuzatish, loyiha faoliyati va refleksiya orqali tabiiy ravishda qo'llaniladi. Ularning umumiy jihati - bolani faol subyekt sifatida ko'rish, savol orqali fikrlashni rag'batlantirish va umumashtirishni shaxsiy tajribaga asoslashdir. Shu bilan birga, metodik boshqaruv darajasi, vizual modellashtirish usullari va baholash mexanizmlarida ayrim farqlar kuzatiladi. Ushbu tajriba boshqa mintaqalar, xususan, Osiyo davlatlari maktabgacha ta'lim tizimlarida induktiv metodlarning qanday tashkil etilayotganini qiyosiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi, bu esa keyingi qismda alohida ko'rib chiqiladi.

Osiyo davlatlari maktabgacha ta'lim tizimlarida induktiv yondashuv an'anaviy intizomiylik bilan bir qatorda faol tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Bu mamlakatlarda

6 Stage, Key. "Early Years Foundation Stage." Reading 75 (2016): 41-7.



erta yoshdan boshlab mantiqiy fikrlash, sabab–oqibat bog‘lanishlarini anglash va strukturaviy tafakkurni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi, biroq ushbu jarayon ko‘pincha muammoli vaziyat va amaliy tajriba asosida tashkil etiladi.

Janubiy Koreya maktabgacha ta‘lim tizimida muammoli vaziyatlar orqali o‘qitish keng qo‘llaniladi. Mashg‘ulotlar jarayonida bolalarga real hayotga yaqinlashtirilgan, sodda, ammo mantiqiy izlanishni talab qiluvchi vaziyatlar taklif etiladi. Masalan, “Qanday qilib minorani qulamaydigan qilib qurish mumkin?” yoki “Nima uchun ayrim buyumlar suvda cho‘kadi?” kabi savollar bola tafakkurini faollashtiradi. Pedagog javobni tayyor shaklda bermaydi, balki tajriba va muhokama orqali xulosaga kelish jarayonini boshqaradi. Mantiqiy o‘yinlar esa strukturaviy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Konstruktorlik, ketma-ketlikni tiklash, naqsh va algoritmik o‘yinlar orqali bola umumiy qoida va bog‘lanishni aniqlashga o‘rganadi. Janubiy Koreya tajribasida induktiv metod strukturaviy tafakkur va muammoni bosqichma-bosqich hal etish ko‘nikmasi bilan uzviy bog‘lanadi.

Yaponiya maktabgacha ta‘lim tizimida “lesson study”⁷ yondashuvi elementlari erta bosqichdan qo‘llaniladi. Garchi bu metod ko‘proq umumiy ta‘lim bosqichlarida keng tarqalgan bo‘lsa-da, maktabgacha ta‘limda ham mashg‘ulotni kuzatish, tahlil qilish va takomillashtirish jarayoni tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Pedagoglar bolalarning tajriba jarayonidagi harakatlarini kuzatib, ularning qanday umumlashtirishga kelayotganini tahlil qiladilar va keyingi faoliyatni shunga mos ravishda tashkil etadilar. Tajribaga asoslangan umumlashtirish yapon ta‘limida muhim o‘rin tutadi: bola aniq vaziyatda kuzatgan hodisani solishtiradi, mantiqiy izohlaydi va sabab-oqibat bog‘lanishini tushunishga harakat qiladi. Sababiy tafakkur bu tizimda izchil shakllantiriladi, chunki bolaga har bir natijaning kelib chiqish sababi haqida fikr yuritish odati singdiriladi. Bu esa induktiv metodning psixologik asoslari bilan uyg‘unlashadi.

Singapur maktabgacha ta‘lim tizimida induktiv yondashuv, ayniqsa, matematika o‘rgatishda aniq namoyon bo‘ladi. Concrete-Pictorial-Abstract (CPA) yondashuvi aniq predmetlar bilan ishlashdan boshlab, tasviriy ifoda orqali umumlashtirish va keyinchalik abstrakt belgilarga o‘tishni nazarda tutadi. Bu jarayon induktiv umumlashtirishning izchil bosqichlarini aks ettiradi. Bola dastlab real obyektlar bilan tajriba o‘tkazadi, ularni guruhlaydi, solishtiradi, so‘ng rasm yoki sxema orqali ifodalaydi va nihoyat umumiy matematik tushunchaga o‘tadi. Strukturaviy tafakkur ushbu jarayonda bosqichma-bosqich shakllanadi, chunki har bir yangi bilim avvalgi tajriba asosida umumlashtiriladi. Singapur tajribasi induktiv metodni qat‘iy tizimga solingan bosqichli o‘rgatish mexanizmi bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Osiyo davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, induktiv metodlar mantiqiy o‘yinlar, tajriba va bosqichli umumlashtirish orqali maktabgacha yoshda samarali qo‘llanilishi mumkin. Janubiy Koreyada muammoli vaziyatlar, Yaponiyada refleksiv kuzatuv va sababiy tahlil, Singapurda esa aniq-tasviriy-abstrakt o‘tish mexanizmi induktiv tafakkur shakllanishining turli variantlarini namoyon etadi. Ushbu yondashuvlarning qiyosiy tahlili induktiv metodni tashkil etishda boshqaruv darajasi, bosqichlilik va strukturaviylik omillarining ahamiyatini aniqlashga imkon beradi, bu esa boshqa hududlar, xususan, Shimoliy Amerika tajribasi bilan taqqoslashni talab etadi.

AQSh va Kanada maktabgacha ta‘lim tizimlarida induktiv metodlardan foydalanish tajribasi so‘nggi o‘n yilliklarda izlanishga asoslangan ta‘lim g‘oyalari bilan yanada boyib bormoqda. Bu mamlakatlarda erta bolalik davrini “tayyor bilim berish” bosqichi sifatida emas, balki bolada tabiiy qiziqish, bilishga ichki ehtiyoj va tadqiqotga moyillikni qo‘llab-quvvatlaydigan rivojlantiruvchi muhit sifatida talqin etish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Shuning uchun ham “inquiry-based preschool” (izlanishga asoslangan maktabgacha ta‘lim) yondashuvi keng tarqalgan bo‘lib, u induktiv fikrlash mexanizmlarini ta‘lim jarayonining ichki strukturasi singdiradi. Mazkur tajribada bola “kichik tadqiqotchi” sifatida ko‘riladi: u atrof-muhitni kuzatadi, savol beradi, taxmin (gipoteza) ilgari suradi, sinab ko‘radi, natijani tahlil qiladi va xulosaga keladi. Bu jarayon o‘z mohiyatiga ko‘ra induktiv yo‘l bilan umumlashtirishni anglatadi, chunki bola alohida kuzatish va tajribalar yig‘indisidan umumiy qonuniyatni anglashga harakat qiladi.

AQSh va Kanada pedagogik amaliyotida bolani “kichik tadqiqotchi” sifatida ko‘rish tamoyili, avvalo, bolalarning tabiiy kognitiv qiziqishini markazga qo‘yadi. Maktabgacha yoshdagi bola ko‘pincha “nega?”, “qanday?”, “agar bo‘lsa, nima bo‘ladi?” kabi savollarni ko‘p beradi. Inquiry-based yondashuv aynan shu savollarning ta‘limiy qiymatini ochib beradi: savol - bu bilishga kirish eshigi, izlanish jarayonining boshlanish nuqtasi sifatida qaraladi. Ta‘lim jarayonida pedagogning vazifasi savolni “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb baholashdan ko‘ra, uni rivojlantirish, aniqlashtirish va tadqiqot faoliyatiga aylantirishdan iborat bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi bilimni tayyor shaklda bermaydi, balki bola tajribasi uchun sharoit yaratadi, resurslarni taqdim etadi, muhitni tashkil etadi va izlanishning mantiqiy yo‘nalishini nozik boshqaradi. Shu tarzda o‘qituvchi ro‘lida “ma‘lumot beruvchi”dan “tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi”ga o‘tish sodir bo‘ladi. Bu o‘zgarish induktiv metodlarning samaradorligini oshiradigan muhim didaktik shartlardan biri hisoblanadi.

7 Saito, Eisuke. “Key issues of lesson study in Japan and the United States: A literature review.” Professional development in education 38.5 (2012): 777-789.



Shu o'rinda AQSh va Kanada tajribasining yana bir muhim jihati - induktiv metodlarni "yo'naltirilgan izlanish" tamoyili asosida tashkil etishidir. Ya'ni, bola erkin izlanadi, biroq pedagog muhitni, resurslarni va savollarni shunday tashkil etadiki, izlanish maqsadsiz adashish emas, balki mantiqiy umumlashtirishga olib boradigan izchil jarayon bo'lib qoladi. Bu tamoyil maktabgacha yosh psixologiyasi uchun juda muhim, chunki bolalarning qiziqishi tez chalg'ishi yoki vazifani haddan tashqari murakkab deb qabul qilishi mumkin. Yo'naltirilgan izlanish esa kognitiv yuklamani boshqaradi: pedagog vazifani mayda bosqichlarga bo'ladi, muammoli vaziyatni soddalashtiradi, muhim belgilarni ajratishga yordam beradi, lekin yakuniy xulosani bola o'z tajribasida topishiga imkon qoldiradi. Natijada induktiv jarayon ham psixologik jihatdan qulay, ham didaktik jihatdan maqsadli bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanish bolalarning mustaqil fikrlashi, kuzatuvchanligi, mantiqiy tafakkuri va bilishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalarni kuzatish, tajriba o'tkazish, savol-javob va muammoli vaziyatlar orqali umumiy xulosaga olib kelish ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bois induktiv metodlarni maktabgacha ta'lim amaliyotiga izchil joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Comenius, J. A. The Great Didactic (Didactica Magna). Translated by M. W. Keatinge. - London: Adam and Charles Black, 1896.
2. Dewey, J. Experience and Education. - New York: Macmillan, 1938.
3. Piaget, J. The Origins of Intelligence in Children. - New York: International Universities Press, 1952.
4. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Edited by M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, E. Souberman. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. Hohmann, M., Weikart, D. P. Educating Young Children: Active Learning Practices for Preschool and Child Care Programs. - Ypsilanti, MI: High/Scope Press, 1995.
6. Stage, Key. "Early Years Foundation Stage". Reading 75 (2016): 41-7.
7. Saito, Eisuke. "Key issues of lesson study in Japan and the United States: A literature review". Professional development in education 38.5 (2012): 777-789.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.